

**XAMMURAPI QONUNLARI – QADIMGI HUQUQ TIZIMINING
ASOSI**

Xurramova Sevinch Jamshid qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Tarix yo‘nalishi 33-24 guruh talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada qadimgi Sharq sivilizatsiyalaridan biri bo‘lgan Bobil podsholigi davrida shakllangan Xammurapi qonunlari tizimi har tomonlama tahlil qilinadi. Xammurapi qonunlari insoniyat tarixidagi eng qadimgi yozma huquqiy manbalardan biri sifatida jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, adolatni ta‘minlash va davlat hokimiyatini mustahkamlashda muhim o‘rin egallagan. Maqolada qonunlarni yaratilishi, ularning tuzilishi, asosiy mazmunidamda huquqiy normalarining ijtimoiy qatlam bo‘yicha qo‘llanish xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek jinoyat va jazo, mulk munosabatlari, oila va nikoh, mehnat hamda sud tizimiga oid normalar misolida Xammurapi qonunlarining qadimgi jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyati ochib beriladi. Maqola qadimgi huquq tarixi davlatchilik va jamiyat taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Xammurapi, Bobil, oila, savdo-sotiq, mol-mulk, XVIII asr, Mesopotamiya, struktura, prolog, epilog, kodifikatsiya, jinoiy, legitimatsiya, konstruksiya, tirxatum, sherektum, qasr, saroy, ibodatxona.

**THE LAWS OF HAMMURABI – THE FOUNDATION OF THE
ANCIENT LEGAL SYSTEM**

Khurramova Sevinch Jamshid kizi

Abstract: this article provides a comprehensive analysis of the system of the Laws of Hammurabi, which was formed during the period of the Babylonian Kingdom, one of the ancient Eastern civilizations. As one of the oldest written legal sources in human history, the Laws of Hammurabi played a significant role in regulating social relations, ensuring justice, and strengthening state authority. The article examines the process of the creation of the laws, their structure, main content, and the specific features of the application of legal norms according to social strata. In addition, the practical significance of the Laws of Hammurabi in the life of ancient society is revealed through examples related to crime and punishment, property relations, family and marriage, labor, and the judicial system. The article is of great scientific importance for the study of ancient legal history, statehood, and the development of society.

Keywords: Hammurabi, Babylon, family, trade, property, 18th century, Mesopotamia, structure, prologue, epilogue, codification, criminal law, legitimation, construction, *tirxatum*, *sherektum*, palace, royal court, temple.

Insoniyat tarixida o'tgan buyuk shaxslar turli qonun-qoidalar muallifi bo'lgan. Ushbu hujjatlar aksariyat hollarda qoida, qonun maqomini olgan. Bobilda qabul qilingan "Xammurapi qonunlari" birinchi qonun sifatida butun dunyoga tanilgan hisoblanadi. Bu faqat Bobil uchun emas balki uning siyosiy ta'limotlar tarixida tutgan o'rnini bildiradi. Qadimgi Bobil davlati insoniyat tarixidagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri bo'lib, uning siyosiy tizimi, huquqiy tartiblari va davlat boshqaruvi bugungi huquqiy madaniyat va qonunchilikka katta ta'sir ko'rsatgan. Xammurapi qonunlari milloddan avvalgi XVIII asrda (taxminan 1792-1750 yillar) Xammurapi hukmronligi davrida

Bobil davlatida shakllangan huquqiy to'plamdir. Ushbu qonunlar jamiyatning turli qatlamlari-hur va erkin fuqorolar, qullar va tayanch sinflarning ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish, iqtisodiy nizolarni hal etish hamda hukumatning hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan. Tarixiy jihatdan ular Mesopotamiya sharoitidagi suv ta'minoti, yer egaligi va shahar hududlari o'rtasidagi savdo munosabatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan edi.

Qonunlarni amaliyotga tatbiq etish sharoitlari ham muhim: yozma hujjatlarni adolatli tarzda bajarilishi uchun sarhadlar sud yuristlar va xatti-harakatni nazorat qiluvchi vakillar bo'lishi keak edi. Shu bilan birga hujjatlarning saqlanishi va ko'chirilishi silliq amalga oshirilgan. Xususan hujjatlar qasr va ziyoratgohlar kabi jamoat joylarida joylashtirilgan.

Xammurapi qonunlari Bobil jamiyatining huquqiy va siyosiy asoslarini aniq ifoda etuvchi yirik hujjatdir. Ular struktura jihatidan prolog asosiy kodifikatsiya va epilogdan iborat bo'lib har bir modda oddiy shaklda kasuistik uslubda berilgan. Bu shakl qonunlarni amaliyotga mos va hollarga qarab qo'llashga yaroqli bo'lgan, biroq ba'zan qattiq klassik qoidalar ham mustahkamlab qo'yilgan. Xammurapi davri Vavilon siyosiy tizimini tushinishda qonunlar markaziy rol o'ynagan

Xammurapi qonunlari to'plami nafaqat huquqiy normalarni bayonotida hukmdorning siyosiy vakolatini, jamiyatdagi tabaqalanishni va ma'muriy munosabatlarni mustahkamlovchi vosita sifatida ham xizmat qilga. Qonunlarning kirish so'zlarida hukmdor o'zini adolatini ta'minlovchi xudolar nomidan hukm qiluvchi sulton ya'ni hukmdor sifatida ta'riflaydi, bu esa monarxiyaga diniy huquqiy legetematsiya beradi. Qadimgi Bobil dastlab kichik shahar-davlat sifatida mavjud bo'lgan. Eramizdan avvalgi XVIII asrda Xammurapi hukmronligi davrida Bobil butun Mesopotamiyani birlashtirib qudratli imperiyaga aylanadi. Shunday qilib tarixda Eski Bobil davlati

shakllanadi. Bu davr siyosiy markazlashuv qonunlashtirish va davlat boshqaruvi tizimining takomillashuvi bilan harakterlanadi.

Xammurapi kodeksining siyosiy ta'limotiga ta'sirini bir nechta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ldi. Birinchidan huquqiy kodifikatsiya orqali markaziy boshqaruvni kuchaytirish imkoniyati paydo bo'ldi: aniq jazolar, mol-mulk va oilaviy huquqiy qoidalari, shuningdek xizmat va soliqlar to'g'risidagi me'zonlar davlat xizmatchilari hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga nisbatan boshqaruvni standartlashtirdi. Ikkinchidan kodifikatsiyalangan qonunlar orqali hukmdor o'z siyosiy irodasini axloqiy va diniy asoslarda asosladi.

Xammurapi o'zini adolatni ta'minlovchi va xudolar tomonidan yuzaga keltirilgan hukmdor sifatida ko'rsatdi. Bu siyosiy-ta'limiy konstruksiya keyingi bobilli hukmdorlar uchun model bo'ldi. Uchinchidan Xammurapi qonunlari sinfiy tuzilmani va ijtimoiy huquqiy nisbiylikni ifoda etdi: budjet, mehnat va mulk masalalarida boy va kanbag'al tabaqalar uchun turli jazolar belgilandi. Bu holat siyosiy boshqaruv unumlaridan ijtimoiy barqarorlikni saqlash uchun shu qoidalarga muvofiq muammolarni rag'batlantirdi. To'rtinchidan qonunlar adliya institutlarini rivojlantirishga turtki berdi: sud amaliyotining qisman standartlanishi va huquqni qo'llash tartibining mustahkamlanishi mamlakat siyosiy tizimining barqarorligiga xizmat qildi.

Xammurapi qonunlari 282 ta moddadan iborat bo'lgan. Shundan sud va sud jarayoni (1-5-moddalar) mulk huquqining buzilishi va unga qo'llaniladigan jazolar (6-12-moddalar) nikoh, oila va meros huquqi (127-195-moddalar) jinoyat huquqi (shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik 196-214-moddalar) mehnat va mehnat qurollari (215-282-moddalar) hamda boshqa munosabatlar to'g'risidagi me'yorlar belgilangan. Kodeksni tuzishda qadimgi odat huquqi, shumer qonunlari va yangi qonunlar asos qilib olingan. Xammurapi qonunlari boshqa Sharq qonunlaridan farq qilib, o'zida diniy va nasihatgo'ylik elementlarini saqlamaydi. Shunday bo'lsa-da, unda talion

tamoyili va ordaliya kabi urug‘doshlik tizimi belgilari saqlangan. Hozirgi davr huquqshunosligida Mesopotamiya huquqini o‘rganish uchun asosiy manba tariqasida

Xammurapi qonunlariga murojaat etiladi. Xammurapi qonunlarida nikoh masalasiga ham to‘xtalib o‘tiladi. Unga ko‘ra qullar va erkin kishilar oila qurishi mumkin bo‘lib, tug‘ilgan bola erkin hisoblangan. Nikoh shartnomasi tuzilishidan avval kuyov bo‘lajak qaynonasiga qalin puli- “Tirxatum”, kelinning oila a‘zolariga to‘y sovg‘alari “Biblum”, kelinning otasi qiziga sep-sibirg‘a “Sherektum” berishi lozim bo‘lgan. Farzand ota-onasini so‘ksa tili, ursa barmoqlari kesilgan. Merosga dastlabki vaqtlarda eng avvalo o‘g‘illar, o‘g‘illar bo‘lmasa qizlar keyinchalik qizlar ham o‘g‘illar bilan teng me‘ros huquqiga ega bo‘lganlar. Agar o‘g‘il vafot etgan bo‘lsa, nevaralar merosxo‘r bo‘lgan. Farzand va nevaralar bo‘lmasa aka-ukalar, ular ham bo‘lmasa amakilar merosxo‘r sifatida maydonga chiqqanlar.

Xammurapi qonunlari umumiy mazmunga qarab to‘rtta turdagi shaxsga qarshi, mulkka qarshi, oilaga qarshi va sudga qarshi jinoyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Qasddan odam o‘ldirish uchun o‘lim jazosi ko‘zda tutilgan. (153-modda) Ehtiyotsizlik oqibatida odam o‘limiga sabab bo‘lish uchun o‘lim jazosi belgilangan. Masalan uy imorat buzilib uy egasining o‘li o‘lsa, quruvchining o‘g‘li ham o‘ldirilgan. (230- modda) Shaxs sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlarga ijtimoiy ahvoli jabrlovchi bilan bir xil bo‘lgan ayblanuvchilar talion tamoyili bo‘yicha jazolangan.

Agar ayblanuvchi yuqori mavqega ega bo‘lsa, jarima to‘lagan. Shaxsga qarshi jinoyatlar qatorida yosh bolalarni o‘irlash jinoyati ham ko‘rsatilib o‘tilgan. Albatta bundan maqsad qul qilib sotish bo‘lgan. Agar avilunning yosh o‘li o‘g‘irlansa o‘limga mahkum etilgan.(14-modda) Mulkka qarshi jinoyatlarga juda og‘ir jazolar nazarda tutilgan. Saroy va ibodatxona mulkni o‘g‘irliganlik uchun ayrim hollarda o‘lim jazosi, boshqa hollarda o‘ttiz barobar miqdorida jarima nazarda tutilgan. Yong‘in paytida o‘irlik qilgan jinoyatchi

o'tga tashlangan. Xammurapi qonunlariga muvofiq, sudya ilgarigi qarorini o'zgartirsa, lavozimidan chetlashtirilgan va davoning o'n ikki barobari miqdorida jarima to'lagan.

Tayyorlanilayotgan jinoyat haqida xabar bermaslik, yolg'on guvohlik berish va tuxmat qilish uchun jinoiy jazolar belgilangan. Sud ishlarini yuritishda tomonlarning ko'rsatmalarini suv bilan sinash usuli amalda bo'lgan. Sud qaydnomalari loy taxtachalarga yozilgan. Ularda tomonlarning ko'rsatmalari qasamlari guvohlarning ismlari va sud hukmining mazmuni yozib qo'yilgan. Qoida bo'yicha tomonlar bir ishni ikkinchi marta qo'zg'atishlari mumkin bo'lgan. Xammurapi qonunlari qadimgi Mesopotamiya jamiyatida huquqiy tartibotni ta'minlashga qaratilgan eng mukammal va tizimli qonunlar majmuasidan biri hisoblanadi. Ushbu qonunlar davlat boshqaruvi ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik savdo-sotiq, oilaviy hayot hamda jinoyat va jazolar tizimini aniq me'yorlar asosida tartibga sologan. Xammurapi qonunlarining muhim jihati shundaki, ular jamiyatni qatlamlarga ajratgan holda har bir ijtimoiy guruhning huquq va majburiyatlarini belgilab bergan hamda davlat hokimiyatining ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Mazkur jazo tamoyili asosiy o'rin egallagan bo'lib, bu qadimgi huquqiy tafakkurning rivojlanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga Xammurapi qonunlari mutlaq tenglikni ta'minlamagan bo'lsa-da huquqiy me'yorlarni yozma shaklda mustahkamlashi bilan insoniyat tarixida muhim burilish yasagan. Ular nafaqat Bobil davlati uchun balki keying davr huquq tizimlari shakllanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda Xammurapi qonunlari qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yuksak huquqiy madaniyatini aks ettiruvchi bebaho manba bo'lib, davlat va huquqiy tarixini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu qonunlar orqali qadimgi jamiyatlarning boshqaruv mehanizmlari, ijtimoiy adolat tushunchasi hamda huquqiy ong darajasini chuqur anglash mumkin. Shu bilan birga, Xammurapi qonunlari jamiyatdagi tabaqalanishni

ochiq ko'rsatadi: jazolar shaxsning ijtimoiy mavqeiga qarab farqlangan. Bu holat qonunlarning to'liq tenglikka asoslanmaganini ko'rsatsa-da u davr uchun huquqiy tartibni ta'minlashda muhim vosita bo'lgan. Natijada, Xammurapi qonunlari qadimgi davr huquqiy madaniyatining yuksak namunasi sifatida keying sivilizatsiyalarning qonunchilik tizimlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan tarixiy yodgorlikdir.

ADABIYOTLAR \ REFERENCES

1. S.P.Ivanov "Xammurapi kodeksi" Moskva 1998
2. I.M.Diakonov " Qadimgi Sharq tarixi" Moskva 1986
3. A.B.Ishmaliyev "Vavilon davlati va huquqi" Toshkent 2002
4. B.A.Karpov "Xammurapi kodeksi" Moskva 1984
5. Djurayev I. N. MARKAZIY OSIYODA QADIMGI DAVRDA KO 'CHMANCHI VA O 'TROQ XALQLARNING SIYOSIY, IQTISODIY HAMDA MADANIY MUNOSABATLARI //CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE & ENGINEERING. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 145-152.
6. Djuraev I. ON THE QUESTION OF THE RELATIONSHIP OF THE POPULATION OF THE STEPPES EURASIA AND CENTRAL ASIA IN THE BRONZE AGE //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – C. 658-661.
7. Nematovich, Djurayev Ikrom, and Djurayeva Feruza Nematovna. "Resettlement to the Fergana Valley of the Central Asian Cattle Breeders." World Bulletin of Social Sciences 20: 107-109.